

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



RIVOJLANISH STRATEGIYASINI AMALGA OSHIRISHDA YAPONIYA TARAQQIYOT MODELIDAN FOYDALANISH

Jo'rayeva Malika Zulfiqor qizi
Jahon iqtisodiyoti va diplomatiyasi universiteti, TIF yo'nalishi magistranti.
E-mail: mjurayeva00@gmail.com

"Yapon modeli" iqtisodiyotning iqtisodiy mantiqdan tashqarida rivojlnana olmasligini, bozor iqtisodiyotiga o'tishda hech qanday oson "rivojlanishning uchinchi yo'li" bo'lmasligini aniq ko'rsatib turibdi. "Yapon modeli"ni xolisroq tushunish O'zbekistonning yanada rivojlanishiga oz bo'lsada hissa qo'shadi, degan umiddaman.

Akio Kavato
(Yaponianing O'zbekiston Respublikasidagi sobiq Favqulodda va Muxtor Elchisi)

Annotatsiya: Joriy yilning 11-sentabr kuni "O'zbekiston – 2030" strategiyasi to'g'risida farmon imzolandi. (PF-158-son).¹ Ushbu O'zbekistonning 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi 5 bo'limdan iborat bo'lib, 100 ta strategik vazifalarни o'z ichiga olgan. Albatta bu vazifalarни amalgalash uchun jahonning boshqa mamlakatlari, xususan rivojlangan va yuqori suratlarda rivojlanayotgan davlatlarning taraqqiyot modellarini ko'rib chiqib, ulardan o'z modelimizga mos keladigan jihatlarini o'rghanishimiz kerak. Shu nuqtai nazardan, dunyo aholisining 2 foizdan kamroq'iga ega, jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 16 foizini ishlab chiqaradigan va eng kuchli iqtisodiy davlatlar ro'yxatida doimiy ravishda 2-o'rinni egallab kelayotgan "Quyosh chiqar mamlakat" tajribasini O'zbekistonning rivojlanish strategiyasini amalgalashda foydali bo'lishi mumkin bo'lgan jihatlarini o'rghanishimiz zarur. Shuni ta'kidlashni istardimki, ushbu maqolaning asosiy maqsadi Yaponiya rivojlanish modelini O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan to'g'ri tadbiq etish masalasi, chunki Yaponiya iqtisodiyoti rivojlangan va faoliyat yuritayotgan muhit hozir juda o'zgardi va bir paytalar Yaponiyada qo'llanilgan usullarni mamlakatimizda to'liq qo'llash imkoniyatini mavjud emas. Biroq, har bir davlat iqtisodiyotining xususiyatlarini hisobga olgan holda amalgalashda iqtisodiy rivojlanishning asosiy tamoyillari mavjud.

Kalit so'zlar: YaIM, "Yapon mo'jizasi", taraqqiyot modeli, feodalizm, konsern, "umrbod bandlik".

"Yaponiya iqtisodiy mo'jizasi", "yuqori iqtisodiy o'sish davri- yapon tilida 高度経済成長, o'qilishi: *Kōdo keizai seichō*" (urushdan keyingi iqtisodiyot), "o'tish iqtisodiyoti" - bu ekvivalent atamalar 1955-1973 yillardagi Yaponiya iqtisodiyotining yuqori o'sish sur'atini namoyon etgan davrni tavsiflaydi. Iqtisodchi Milton Fridman bir paytalar "Tezlik bilan o'sishning eng yaxshi yo'li - bu mamlakatni bombardimon qilishdir", degan edi. Hamma narsani yo'qotgan mamlakat gullab-yashnashini tasavvur qilish qiyin bo'lsa-da, Yaponianing urushdan keyingi iqtisodiyoti aynan shunday vaziyatni taqazo etdi. 1945 yil 14 avgustda Yaponiya so'zsiz taslim bo'ldi,

¹ <https://lex.uz/docs/6600413> O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni PF-158-son

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



Sovuq urush mamlakatga taxminan 2,6 milliondan 3,1 milliongacha qurbanlar va 56 milliard dollar zarar berdi. Yaponiyada deyarli hech narsa qolmagan bo'lsa-da, ularning iqtisodiyoti aql bovar qilmaydigan tezlikda tiklandi.² Mamlakatda 1945-1955- yillarda olib borilgan iqtisodiyotni tiklash borasidagi tubdan o'zgartirilgan iqtisodiy islohiyotlar Yaponiyani uzoq yillar mobaynida eng kuchli 2- mamlakat bo'lib qolishiga sabab bo'ldi.

Tizimli islohotlar bo'lgan shaksiz ehtiyoj 1945- yilda yaqqol ko'zga tashlana boshladi. Islohotlar 1945-1948 yillarda Amerikalik olimlar tomonidan ishlab chiqilib, u aniq bir tizimga ega emas edi. "Kun chiqar mamlakat" uchun quyidagi 3 turdag'i islohot joriy etildi. Bular - monopoliyaga qarshi islohot, yer (xususiy mulk) islohoti va mehnat islohoti - Yaponiyada bozor mexanizmini ishga tushirish uchun yetarli darajada asos yaratdi, chunki ular kapitalistik tizimning uchta ustunini, ya'ni: raqobat, xususiy mulk instituti va ishchilar huquqlarini himoya qilishni qamrab oldi.³


Yer islohotiga ko'ra, davlat yer egalarining yerlarini sotib olib, ilgari bu yerni ijara olgan dehqonlarga arzon narxlarda qayta sotgan. Bu islohotning natijasi o'laroq, 1950 yilga kelib yapon dehqonlari ijara olingan barcha yerlarning 80 foiziga egalik qilishdi, bu esa yerga xususiy mulkchilik bilan dehqonchilik sektorini shakllantirish va feodalizmni butunlay yo'q qilish imkonini berdi. Bundan tashqari, ushbu islohot shahar va qishloq o'rtaсидagi munosabatlarning rivojlanishiga, ichki bozor hajmining o'sishiga va sanoatlashtirish uchun kapital jamg'arish jarayoniga turtki berdi. Yaponiya parlamenti 1947 yilda mamlakatning yangi Konstitutsiyasini qabul qildi. Unga ko'ra, Yaponiyada Konstitutsion monarxiya tuzumi o'rnatildi. Imperator amalda real hokimiyatdan mahrum etilib, faqatgina millatning birlik ramzi sifatida saqlab qolindi. Yangi konstitutsiyaga ko'ra bosh vazirni Imperator tayinlasda, uning nomzodini parlament tasdiqlashi zarur edi. Amerikalik moliyachi D.Dodj tomonidan Yaponiya iqtisodiyotini barqarorlashtirish uchun "Dodge Line" loyihasi ishlab chiqildi. Islohotning mohiyati inflyatsiyani bartaraf etish va iqtisodiyotni barqarorlashtirish edi. Bu moliyaviy islohot Yaponianing tashqi savdo holatiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi. Tez orada, Yaponiya pul birligi yena barqarorlashdi va buning natijasida, davlatda uzoq davom etgan moliyaviy inqiroz o'z nihoyasiga yetdi.

- 1- Rasmida** Yaponianing urushdan keyingi davrdagi real iqtisodiy o'sish darajasini 4 yillik davrlarda ko'rishimiz mumkin

² HANNAH SHIOHARA . "The Japanese Economic Miracle"—JANUARY 26TH, 2023

³ В. А. Мозебах ЯПОНСКОЕ «ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЧУДО»: СУЩНОСТЬ И ПОДХОДЫ К ПОНИМАНИЮ УДК 94. 495-стр

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



1- rasm. Yaponianing 1950-1973 yillardagi real iqtisodiy o'sish sur'atlari 4 yillik bosqichlarda⁴.

Yaponiyani “iqtisodiy mo’jiza”ga erishishiga quyidagi omillar yetakchilik qildi:

1. 1953 yilda AQSH-Yaponiya o‘rtasida “do‘stlik, savdo va dengiz kemalari qatnovi to‘g‘risida”gi bitim imzolandi, buning natijasida ikkala davlat fuqarolariga bir-birining hududida erkin harakatlanish huquqini berdi. Shundan so‘ng, amerikalik magnatlar Yaponiya ichki bozoriga o‘z sarmoyalarini olib kira boshladi.

2. 1950- yilda yirik sanoat korxonalaridagi barcha jihozlar davr nuqtai nazaridan yangilandi. 1960- yilga kelib esa, o’rta va kichik sanoat korxonalaridagi jihozlar ham yangilariga almashtirildi. Natijada ishlab chiqarilayotgan sanoat maxsulotlarining sifati va raqobatbardoshligi o’sdi. 2-rasmda, asosan, temir, po’lat, neft-kimyo, elektronika, motorsozlik, kimyo muhandisligi kabi tarmoqlarda yangi texnologiyalarni import qilish bo'yicha imzolangan shartnomalar soni ko'rsatilgan.



⁴ <https://econreview.berkeley.edu/the-japanese-economic-miracle/>

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



2- rasm: shartnomalar soni⁵

3. Koreya- Vietnam urushi. 1954- yilda Shimoliy Koreya hamda Vietnam davlatlari o'rtaida o'zaro kelishmovchiliklar kelib chiqa boshlaydi, bu urushga keyinchalik 1965- yilda Janubiy Koreya ham qo'shiladi. Bu urush yapon harbiy tovarlariga bo'lgan talabni keskin oshirib yubordi, urush munosabati bilan berilgan harbiy buyurtmalar sanoatga juda katta foyda keltirdi.

4. Keyingi sabab urushdan keyin harbiy xarajatlarning yo'qligi. Ikkinci jahon urushidagi mag'lubiyat va Yaponiya taslim bo'lganidan so'ng Yaponiya imperatorlik armiyasi tarqatib yuborildi, harbiy zavodlar va harbiy maktablar yopildi. AQSHning o'zi 80% harbiy xarajatlarni moliyalashtirdi. Harbiy xarajatlar 1970 yilga kelganda byudjetning 1,2 foizini tashkil etdi.

1- jadval. Yaponiyaning harbiy xarajatlari

год	• 151 млрд. иен
• 1960 год	• 190 млрд. иен
• 1962 год	• эквивалент 600 млн. долларов США в национальной валюте
• 1965 год	• 301,4 млрд. иен (по другим данным, 343 млрд. иен)
• 1970 год	• 569 млрд. иен (0,8% ВВП)
• 1975 год	• 1,327 трлн. иен (0,9% ВВП)
• 1978 год	• 1,901 трлн. иен (0,9% ВВП)
• 1979 год	• 2,094 трлн. иен (0,9% ВВП)
• 1980 год	• 2,230 трлн. иен (0,9% ВВП)
• 1981 год	• 2446,6 млрд. иен (по другим данным, 2448 млрд. иен)
• 1982 год	• 2,586 трлн. иен (1,0% ВВП)
• 1983 год	• 2,754 трлн. иен (1,0% ВВП)
• 1984 год	• 2,935 трлн. иен (1,0% ВВП)
• 1985 год	• 3,137 трлн. иен (1,0% ВВП)
• 1990 год	• 32 млрд. долларов США (1,002% ВВП)
• 1993 год	• 37,7 млрд. долларов США (0,95% ВВП)

⁵ HANNAH SHIOHARA: "The Japanese Economic Miracle". - [January 26, 2023](#) Published By : [BER staff](#).

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



• 2003 год	• 41,4 млрд. долларов США
• 2004 год	• 46 млрд долларов США (0,94% ВВП)
• 2010 год	— \$54,5 млрд (0,93% — 0,94% ВВП)
• 2011 год	• \$58,4 млрд (0,94% ВВП)
• 2012 год	• 4,645 трлн иен
• 2013 год	• 4,653 трлн иен
• 2014 год	• 4,82 трлн иен
• 2015 год	• 4,981 трлн иен
• 2016 год	• 5,05 трлн иен
• 2017 год	• 5,1 трлн иен
• 2019 год	• 5,3 трлн иен
• 2020 год	• 5,32 трлн иен
• 2021 год	• 5,3 трлн иен
• 2022 год	• 5,48 трлн иен (1,015% ВВП)
• 2023 год	• 6,82 трлн иен (1,19% ВВП)
• 2024 год	• предварительно запланировано 7,739 трлн иен

6

5. Konsernlarning ko‘ptarmoqliligi kapitalni aylantirishda qo‘l keldi. Masalan, kemasozlik korxonalari qiyin paytlarda mashinasozlik, kimyo jihozlari, turbinalar va boshqa mahsulotlar ishlab chiqarishga moslashtirildi.

“Umrbod bandlik”. Umrbod bandlikning o‘ziga xos tizimini ta’kidlash joizki, bu bandlikning psixologik kafolatini va kelajakka nisbatan ishonchni yaratadi. Xodimlar ish stajiga ko‘ra xizmat qilishadi va ish haqi to‘lanadi va shu ish davomida o‘qitilib boriladi. G‘arbda esa kasblarni almashtirishda ishlab chiqarish ta’limi ko‘proq qo’llaniladi. Yapon menejerlari tizimga muvofiq o‘zlarining hali ham yuqori darajaga ko’tarilishini bilgan holda, yuqori boshqaruvin vakillari tomonidan ish bilan ta’milanadi va hayoti davomida ta’lim oladi, buning natijasida samarali, bilimli yetishib chiqadi. Shu bilan birga, xodimlar va yuqori menejment vakillari o‘rtasidagi ish haqi va turmush darajasidagi farq Evropa va Shimoliy Amerikadagi kabi yuqori emas. Misol uchun, 1960-yillarda Sony asoschisi Morita Akio o‘zi kompaniyaning Amerika bo‘limi boshlig‘idan kamroq maosh olganini aytib o’tgan.

⁶ Япония // "Зарубежное военное обозрение", № 8 (905), 2022. стр.96

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



Xodimlarga “psixologik yondashuv” Yaponiya korxonalari ishchilarni ishga layoqatsiz bo‘lib qolgunicha yoki umrbod ish bilan ta’minlash to‘g‘risida shartnoma tuzadi. Ishchi esa intizomli, har qanday qiyinchilikka chidaydigan, korxonani o‘ziniki deb bilishi va unga xiyonat qilmasligi zarur.

Xulosa qilib oladigan bo‘lsak: Ikkinci jahon urushidagi yirik mag‘lubiyatdan so‘ng Yaponiya nafaqat “oyoqqa turishga”, balki ba’zi ko‘rsatkichlarga ko‘ra dunyoning eng kuchli iqtisodiga ega mamlakatlardan ham o‘zib ketishga muvaffaq bo‘ldi. Albatta, bunday tizimning o‘ziga yarasha kamchiliklari ham bor. Yaponiyada ma'lumotlarga ko‘ra, Yaponiyada o‘z joniga qasd qilishlar soni bo‘yicha dunyoda deyarli eng yuqori o‘rinda turadi, keksa yoshdagি pensiyalarning kamligi, ajralishlar ijtimoiy farovonlik masalalari bilan biroz muammolar bo‘lishi mumkin. Biroq, bularning barchasi "yapon iqtisodiy mo‘jizasi" ning "salbiy ta'siri" emas - bu muammolar har bir mamlakatda mavjud. Qishloq xo‘jaligi noqulay geografik joylashuvi tufayli rivojlanishga imkon bo‘lmagan, Yaponiyada Sharqiy Osiyoning Tinch okeani sohillari bo‘ylab cho‘zilgan jami 6852 ta orol mavjud bo‘lib, Yaponiya yerlarining qariyb 73 foizi o‘rmonlar va tog‘lardan iborat bo‘lganligi bois, qishloq xo‘jaligi, sanoat yoki turar joy uchun yaroqsizdir. Yashash uchun qulay zonalar aholi zichligi juda yuqori bo‘lgan qirg‘oqbo‘yi hududlarida joylashgan. Ajralishlar va ko‘p sonli o‘z joniga qasd qilishlar yapon mentalitetining o‘ziga xos xususiyatlari (ularning mehnatkashlik, kollektivizm va fidoyilik) oqibatlari. Negadir Yaponiya doimo rivojlangan G‘arb davlatlari bilan taqqoslanadi. Meni fikrimcha, Yaponiyaning geografik joylashuvi tufayli bu mutlaqo to‘g‘ri yondashuv emas. Ha, Yaponiyada kapitalizm va bozor munosabatlari hukmronlik qiladi, lekin yapon kapitalizmi nisbatan kamroq statik, ijtimoiylashgan, yangi sharoitda yangi sifat kasb etgan feodal qoldiqlari izlarini o‘zida mujassam etgan, kollektivistik va kooperativ tamoyillarning yanada rivojlanganligi bilan ajralib turadi. Va barcha Osiyo mamlakatlarida bo‘lgani kabi, Yaponiyada ham davlatning ro‘li rivojlangan G‘arb mamlakatlariga qaraganda yuqoriroqdir.

Yaponiya taraqqiyotining ayrim jihatlarini, xususan, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda davlatning ro‘lini hisobga olib, beixtiyor savol tug‘iladi: mamlakatlarimiz o‘rtasidagi o‘xshash jihatlar nimada? Masalan, iqtisodiyotlarimiz tarkibi butunlay boshqacha, lekin ayni paytda bir-birini to‘ldiradi, bu esa o‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalarni rivojlantirish uchun sharoit yaratadi. Biroq bugungi kunda

THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT



O‘zbekiston uchun “kun chiqar mamlakat” bilan oddiy savdo qilishdan ko‘ra, uning foydali tajribasini imkon qadar ko‘proq o‘rganish judayam muhim ahamiyatga ega.

O‘zbekiston shiddat bilan o‘sib borayotgan globallashuv davrida turli xatolarga yo‘l qo‘yish va ularni tuzatishga vaqt va resurslarning katta qismini sarflay olmaydi. Yaponiya davlati ham buni allaqachon Meydzi davrida tushunib yetgan, ammo undan keyingi voqealar boshqa sharoitni taqazo etgan edi va globallashuv tezligi xozirgiday yuqori tezlikda emas edi. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: O‘zbekiston yaponlardan nimani o‘rganishi mumkin? Yuqorida ta’kidlanganidek, birinchi navbatda, xech qaysi mamlakatda uchramaydigan o‘ziga xos Yaponiya boshqaruvi, milliy rejalashtirish misolida yuqori samarali boshqaruvi usullarini, shuningdek, mahalliy boshqaruvni o‘rganishi lozim. Qolaversa, iqtisodiyotimiz faoliyatining urushdan keyingi Yaponiyaga o‘xshash ayrim jihatlari bor. O‘zbekiston ham zamonaviy kredit, moliya va soliq vositalari orqali tadbirkorlikni barcha darajadagi qo‘llab-quvvatlashni kengaytirishga muhtoj.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi
2. HANNAH SHIOHARA . ” The Japanese Economic Miracle”– JANUARY 26TH, 2023
3. В. А. Мозебах ЯПОНСКОЕ «ЭКОНОМИЧЕСКОЕ ЧУДО»: СУЩНОСТЬ И ПОДХОДЫ К ПОНИМАНИЮ УДК 94. 495-стр
4. Япония // "Зарубежное военное обозрение", № 8 (905), 2022. стр.96
5. Fukunari Kimura : “Japan’s Model of Economic Development”.- WIDER Working Paper 22/2009. UNU-WIDER.
<https://www.wider.unu.edu/sites/default/files/RP2009-22.pdf>
6. Review by Nasir Tyabji “Japanese Miracle MITI and the Japanese Miracle: The Growth of Industrial Policy”, 1925-75 by Chalmers Johnson. Social Scientist, Vol. 12, No. 4 (Apr., 1984), pp. 73-90
7. Hani Chibli. ”Japanese from Ashes to Miracle economy”.